

VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA KIBERBEZORILIKNI YUZAGA  
KELTIRUVCHI OMILLAR VA OLDINI OLISH CHORALARI

Valiboyev Izzatbek To'xtasin o'g'li

Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14019330>

*Annotatsiya. Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar tomonidan kiberbezorilik jinoyatini sodir etilishiga sabab bo'layotgan omillar va uni bartaraf etish yo'llari, uning huquqiy oqibatlari va dunyoda voyaga yetmaganlarning kiberbezorilik jinoyatlarini o'rghanish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarni tahlil qilish muhokama qilingan.*

*kalit so'zlar:* kiberbezorilik, kiberta'qiblik, raqamli tanishuv zo'ravonligi, kiberbulling va ego.

CAUSES OF CYBERBULLISHING AMONG MINORS AND PREVENTIVE  
MEASURES

*Abstract. This article discusses the factors contributing to the commission of cyberbullying by minors and ways to eliminate it, its legal consequences, and an analysis of research conducted worldwide on the study of cyberbullying by minors.*

**keywords:** cyberbullying, cyberharassment, digital dating abuse, cyberbullying, and ego.

ПРИЧИНЫ КИБЕРБУЛЛИШИНГА СРЕДИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ И МЕРЫ  
ПРОФИЛАКТИКИ

*Аннотация. В данной статье обсуждаются факторы, вызывающие совершение преступлений киберпреследования несовершеннолетними и пути их устранения, его правовые последствия и анализ исследований, проведенных по изучению преступлений киберпреследования несовершеннолетних в мире.*

**ключевые слова:** киберхулиганство, киберпреследование, цифровое знакомство, кибербуллинг и эго.

**Kirish.** Yoshlar mamlakatning tayanchi, kelajakdagi poydevori hisoblanadi. Ayni damda, rivojlanayotgan texnologiyalar davrida yashayotgan ekanmiz, har qanday jabhada rivojlanishimiz uchun zarur bo'lgan imkoniyatlar ham ortib borayotgani sir emas, mazkur imkoniyatlardan samarali foydalana bilish, komil insonning belgisidir. Shu bilan birga, imkoniyatlarga olib boradigan yo'llar mashaqqatli bo'ladigan bo'lsa, natija ham a'lo darajada bo'lishi haqida ko'p marotaba eshitganmiz.

Shuningdek, rivojlangan texnologiyalar imkoniyatlaridan besamar foydalanish, salbiy nuqtayi nazardan olib qaraganda ayanchli voqeа sodir bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Jahon miqyosida jinoyatlar sonining ortib borishi ham insoniyatga nafi tegadigan imkoniyatlardan noto‘g‘ri foydalanish natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlar orqali paydo bo‘ladi. Jinoyatchilikka qarshi kurashish BMT doirasida dolzarb bo‘lgan mavzulardan biri hisoblanadi.

Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan BMT bosh assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqidan tushunishimiz mumkinki, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar asosan yosh avlodni sog‘lom muhitda kamol toptirish, ularni turli xil yod g‘oyalardan asrash va rivojlanishlari uchun barcha zamonaviy imkoniyatlardan foydalanishni tashkil etishdan iborat ekanligidan dalolat beradi. Ushbu anjumanda, yurtboshimiz tomonidan yoshlar siyosatiga oid quyidagi fikr-mulohaza va takliflar ilgari surilgan ya’ni “Aholisining deyarli yarmi yosh avlod vakillari bo‘lgan Markaziy Osiyo uchun yoshlar va ularning salohiyatini ro‘yogha chiqarish masalasi ayniqsa dolzarb ahamiyatga ega.<sup>1</sup> Ayni paytda biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan tuzilmalari bilan samarali hamkorlik o‘rnatish, boshqa mintaqalarning ilg‘or tajriba va yutuqlarini o‘rganishdan manfaatdormiz.

Shu munosabat bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzurida<sup>1</sup> Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha ishchi guruh tashkil etishni taklif etaman.

Uning doirasida “Markaziy Osiyo yoshlarining kun tartibi – 2030” dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir”<sup>1</sup>

Ta’kidlash joizki, Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning miqdori so‘nggi vaqtarda ortib borayotgani kishini taajjubga solmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 2023-yilda 3600 nafar voyaga yetmagan shaxslar jinoyat sodir etgan. Mazkur ko‘rsatkich, oldingi besh yil davomidagi sodir etilgan jinoyatlar ko‘rsatkichidan 4.4 barobarga oshganini ko‘rsatmoqda.<sup>2</sup>

**Muhokama va natijalar.** Ma’lumki, voyaga yetmagan shaxslarda taqlidchilik, o‘zgaruvchanlik va hissiyotlarini boshqara olmaslik xususiyatlari yuqori bo‘ladi. Dunyoda taxminan internet foydalanuvchilarining 3/1 qismini voyaga yetmagan bolalar tashkil etadi.<sup>3</sup>

Raqamli texnologiyalar shaxslararo aloqaning yangi shaklini ta’minlab beradi. Voyaga yetmaganlar tomonidan internetdan foydalanishning salbiy jihatni sifatida kibermakonda ular bezorilik jinoyatini sodir etishda ishtirok etadi yoki boshqalarni bezorilikdan ziyon ko‘rishiga sabab bo‘luvchi xatti-harakatlarni amalga oshiradilar.<sup>3</sup> Mazkur xatti-harakatlarni ifodalovchi xulq-atvor kiberbezarilik deb nomlanadi. Jahon miqyosida bezorilik tadqiqotlarining ilmiy izlanuvchisi

<sup>1</sup> © 2024 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti [www.president.uz](http://www.president.uz)

sifatida tanilgan shvetsiyalik psixolog Olweus tomonidan kiberbezarilikka quydagicha ta’rif berilgan; kiberbezarilik odatda elektron vositalar orqali amalga oshiriladigan zo‘ravonlikning bir turi sifatida qaraladi.<sup>(6,7)</sup> Xususan, bolalar va o‘smirlar o‘rtasidagi kiberbullyingni<sup>3 2</sup>(kiberbezarilik) kompyuter, smartfon va boshqa qurilmalardan foydalanish natijasida kibermakonda sodir bo‘ladigan, bir yoki bir nechta tengdoshlar tomonidan qasddan va takroran yetkaziladigan zarar sifatida ta’riflanadi.<sup>(4,8-12)</sup> So‘ngi yillarda kiberbezarilikning yangi turlari paydo bo‘ldi.<sup>1</sup> Masalan; kiberta’qiblik (*cyberstalking*) va raqamli tanishuv zo‘ravonligi (*online dating abuse*).<sup>(13-15)</sup>

Shuningdek, kiberta’qiblik “*cyberstalking*” – kimgadir tajovuz qilish yoki qo‘rqitish uchun elektron aloqalardan takroran foydalanish. Masalan, tahdidli xatlar yuborish. Raqamli tanishuv zo‘ravonligi “*online dating abuse*” – bu matn yuborish va ijtimoiy tarmoqlar kabi texnologiyalardan foydalanib, sherigini qo‘rqitish, ta’qib qilish yoki bezovta qilishdir.<sup>1</sup>

Ko‘pincha bu xatti-harakat internetda sodir etiladigan og‘zaki yoki hissiy zo‘ravonlikning bir ko‘rinishidir. Sog‘lom munosabatlarda esa barcha muloqot, u yuzma-yuz bo‘ladimi, onlayn yoki telefon orqali bo‘ladimi, hurmat bilan amalga oshiriladi. Bugungi kunda bezorilikka sabab bo‘layotgan omillar va uni yuzaga keltiruvchi oqibatlarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunga qaramay, mazkur dolzarb mavzu bo‘yicha tadqiqot olib borish davomida kiberbezarilikning asosiy sabab va oqibatlarini aniqlashda bir qator fanlar doirasida shu jumladan huquqshunoslik, psixologiya va sotsiologiya fanlarida yaxlit muammoni aniqlash usuli ishlab chiqilmagan.<sup>1</sup>

Bundan tashqari kiberbezarilikning sabab va oqibatlari hamda bu bo‘yicha yuzaga kelgan muammolar quydagi olimlar tomonidan o‘rganilgan.<sup>2</sup>

<sup>3</sup>L.A.Bukalerova, A.V.Ostroushko, M.B.Muratxanova, A.A.Grigurev,A.V.Grigurev kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. A.A.Bukalerov<sup>[4]</sup>; M.M. Mogunova<sup>[5]</sup>; A.Xayrulina<sup>[6]</sup>; M.B.Toktagazin, A.T.Tanirbergen, S.A. Tilepbergen<sup>[7]</sup>, ammo mazkur olim tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning aksariyati kiberbezarilikni vujudga keltiruvchi muammolarni qisman

<sup>1</sup> © 2024 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti [www.president.uz](http://www.president.uz)

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi [info@stat.uz](mailto:info@stat.uz) <https://www.stat.uz/uz/>

<sup>3</sup> <https://doi.org/10.3389/fpubh.2021.634909> Chengyan Zhu<sup>1</sup> Shiqing Huang<sup>2</sup> Richard Evans<sup>3</sup> Wei Zhang<sup>4</sup>

**Cyberbullying Among Adolescents and Children: A Comprehensive Review of the Global Situation, Risk Factors, and Preventive Measures** SYSTEMATIC REVIEW article Front. Public Health, 11 March 2021 Sec. Public Mental Health Volume 9 - 2021

<sup>1</sup> <https://doi.org/10.3389/fpubh.2021.634909> Chengyan Zhu<sup>1</sup> Shiqing Huang<sup>2</sup> Richard Evans<sup>3</sup> Wei Zhang<sup>4</sup>

**Cyberbullying Among Adolescents and Children: A Comprehensive Review of the Global Situation, Risk Factors, and Preventive Measures** SYSTEMATIC REVIEW article Front. Public Health, 11 March 2021 Sec. Public Mental Health Volume 9 – 2021

<sup>2</sup>DOI: <https://doi.org/10.32523/2616-6844-2023-145-4-91-99> N.B. Kalkayeva<sup>1</sup> , A.B. Izbassova<sup>2</sup> , D.B. Bubybay<sup>3</sup> Some issues of cyberbullying prevention in the Republic of Kazakhstan IRSTI 10.81.01

o‘rganilganligini nazarda tutadi. <sup>2</sup> Shuningdek, hozirgi kunda tadqiqotchilar tomonidan kiberbezarilik bezorilikning yangi bir turi sifatida hisoblanmoqda. Qozog‘iston tadqiqotchilar tomonidan kiberbezarilik ijtimoiy tarmoqlar va internet orqali sodir etiladigan zo‘ravonlik harakatining turi sifatida nazarda tutilgan. Ushbu xatti-harakatlar sirasiga quyidagilar kirmoqda; qo‘rqitish, soxta axborotlar tarqatish, suiiste’mol qilish tarzida ta’qib qilish va shaxsiy ma’lumotlarni mamlakat tashqarisida oshkor qilish. Kiberbezarilikning psixologik ta’siri virtual makonning o‘ziga xos xususiyati bilan bog‘liq bo‘lib, bezorilik harakatidan farqlash imkonini beradi. Kiberbezarilikning psixologik ta’siri natijasida bezorilik xatti-harakatini sodir etgan shaxsda doimiy ravishda jabrlanuvchini qo‘rqitish imkoniyatiga ega bo‘lishi, kiberbezarilikdan jabr ko‘rgan shaxslar aloqa vositalaridan foydalanish imkoniyatidan cheklanishiga hamda o‘z yaqinlari bilan munosabatda bo‘lishdan qo‘rqishiga olib keladi.<sup>1</sup>

Bundan tashqari, kiberbulling (kiberbezarilik) natijasida jabrlanuvchida uyat, tashvish, befarqlik hissi paydo bo‘ladi, bu esa keyinchalik ruhiy tushkunlik, hattoki ruhiy kasalliklarga aylanishi, jabrlanuvchini uzoq vaqt davomida zaharlagan tajovuzkor, haqiqiy zo‘ravonlik holati, insonning zaifligini, uning og‘rig‘i va azobini ko‘rganida to‘xtashi mumkinligi, shuningdek, agar ish <sup>2</sup> <sup>4</sup>internetda sodir bo‘lsa, unda hech qanday fikr-mulohaza yo‘qligi, tajovuzkor qoniqishga erisha olmasligi va qurbanini qo‘yib yubormasligi, kiberbullingni to‘xtatib bo‘lmasligi hamda bu ijtimoiy tarmoqlarga yuqori darajada qaramlik bilan bog‘liqligi, qolaversa agar maktabda qo‘rqitish sodir bo‘lsa, u hech bo‘lmaganda bola tashqariga chiqqanda yoki uyda bo‘lganida tugashi va tarmoqda esa aksincha, telefon yoqilishi bilan hammasi yana davom etaverishi to‘g‘risidagi mulohazalar Xadicha Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi Sud-lingvistik va psixologik ekspertizasi bo‘limi boshlig‘i Nishanova Nigora Batirovna tomonidan “INTERNET TARMOG‘I MAYDONINING YOSHLAR ONGIGA TA’SIRI VA BUNING OQIBATLARI” nomli ilmiy maqolada nazarda tutilgan. Shu bilan birga, mazkur ilmiy maqolada yoshlarning kiberbulliatsiya qilinayotganini aniqlash mumkin bo‘lgan belgililar ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, bu belgililar quyidagilarda namoyon bo‘lishi ifodalangan.<sup>1</sup>

- ijtimoiy tarmoqlardagi kam sonli do‘stlar;
- e’lon qilingan ma’lumotlarga nisbatan salbiy fikrlarning ko‘pligi;

<sup>1</sup>DOI: <https://doi.org/10.32523/2616-6844-2023-145-4-91-99> N.B. Kalkayeva<sup>1</sup>, A.B. Izbassova<sup>2</sup>, D.B. Bugybay<sup>3</sup>  
**Some issues of cyberbullying prevention in the Republic of Kazakhstan** IRSTI 10.81.01

<sup>2</sup>NISHANOVA Nigora Batirovna, X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi Sud-lingvistik va psixologik ekspertizasi bo‘limi boshlig‘i “INTERNET TARMOG‘I MAYDONINING YOSHLAR ONGIGA TA’SIRI VA BUNING OQIBATLARI” O‘zbekiston sud ekspertizasi huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2021-yil 4-iyunda 1185-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan. e-mail: [info@sudex.uz](mailto:info@sudex.uz)

- voqealar/harakatlarni muhokama qilishda shaxsnı baholashga o‘tish;
- yorliq yopishtirish va haqorat qilish;
- xavfli vaziyatning rivojlanishiga turtki beruvchi triggerlar (tetik mexanizmlar);
- samimiy fotosuratlarni tarqatish;
- kattalarning vaziyatdan uzoqligi;
- individual shaxsiy yoki ijtimoiy xususiyatlar bilan bog‘liq ijtimoiylashuv va <sup>5</sup>moslashish muammolari (“noto‘g‘ri oila” bolalari);
- sinfdan kimgadir “qarshi” yo‘naltirilgan hisoblar va jamoatchilikni yaratish;
- ijtimoiy intellektning yetishmasligi.<sup>1</sup>

Ta’kidlash joizki, kiberbezarilik virtual tarzda raqamli aloqa vositalari mavjud bo‘lgan istalgan joyda sodir bo‘lishi mumkin. Kiberbezarilik dunyoda doimiy ravishda maktab o‘quvchilari tomonidan tengdoshlariga nisbatan raqamli vositalar yordamida onlayn holatida sodir etilayotgani aniqlangan. Voyaga yetmaganlar tomonidan kiberbezarilik asosan xatti-harakatini sodir etishga undayotgan sabablar va uni amalga oshirishni boshlovchi bir qancha asosiy omillar mavjud. Mazkur sabab hamda omillar quyidagilarda yuzaga kelmoqda;<sup>2</sup>

➤ **Jabrlanuvchini ayblast:** Verywell ma’lumotlariga ko‘ra, ayrim o‘quvchilar maktabdagи ijtimoiy pog‘onaga qarab boshqalarga nisbatan kiberbezarilikni amalga oshiradilar. Ular boshqa o‘quvchining muvaffaqiyatiga hasad qilganlari yoki tengdoshlari tomonidan kansitilganlarini his qilganlari sababli ham kiberbezarilikni sodir etishni afzal ko‘radilar. Sababi nima bo‘lishidan qat’i nazar, ko‘pincha bolalar o‘z qurbanlari tomonidan sodir etilgan qandaydir xato harakatlar tufayli o‘zlarining zo‘ravonliklarini haqli deb hisoblashadi.

➤ **Tengdoshlar bosimi:** kiberbezarilikni oldini olish markazi tengdoshlar bosimi o‘quvchilarni kiberbezarilik xatti-harakatlarida qatnashishga undashi mumkinligini ta’kidlaydi.

Ba’zida bolalar jamoaga qo‘shilish haqida shunchalik tashvishlanadilarki, o‘z xatti-harakatlari haqida mantiqiy fikr<sup>2</sup> <sup>6</sup>yurita olmaydilar. Natijada, ular kiberbezarilikni sodir etadilar chunki bu ularga ijtimoiy mavqe keltirishiga ishonishadi.

<sup>1</sup> NISHANOVA Nigora Batirovna, X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi Sud-lingvistik va psixologik ekspertizasi bo‘limi boshlig‘i “INTERNET TARMOG‘I MAYDONINING YOSHLAR ONGIGA TA’SIRI VA BUNING OQIBATLARI” O‘zbekiston sud ekspertizasi huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2021-yil 4-iyunda 1185-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan. e-mail: [info@sudex.uz](mailto:info@sudex.uz)

<sup>2</sup> NISHANOVA Nigora Batirovna, X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi Sud-lingvistik va psixologik ekspertizasi bo‘limi boshlig‘i “INTERNET TARMOG‘I MAYDONINING YOSHLAR ONGIGA TA’SIRI VA BUNING OQIBATLARI” O‘zbekiston sud ekspertizasi huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2021-yil 4-iyunda 1185-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan. e-mail: [info@sudex.uz](mailto:info@sudex.uz)

<sup>2</sup> DOI: <https://doi.org/10.32523/2616-6844-2023-145-4-91-99> N.B. Kalkayeva1 , A.B. Izbassova2 , D.B. Bugybay 3 Some issues of cyberbullying prevention in the Republic of Kazakhstan IRSTI 10.81.01

➤ **Kuchga chanqoqlik:** kiberbezarilik ijtimoiy mavqening namoyon bo‘lishiga turtki bo‘lishi mumkin. Misol uchun, mashhur guruh unchalik taniqli bo‘lmagan o‘quvchilarni ta’qib qilishi mumkin. Qanday bo‘lmasin o‘yin dinamikasida tajovuzkorlar o‘zlarining ijtimoiy mavqelaridan jabrdiyda ustidan o‘z kuchlarini namoyish qilish uchun foydalanadilar, shu bilan o‘z egolarini oziqlantiradilar va e’tiborni tortadilar.<sup>1</sup>

Shu bilan birga, kiberbezarilik natijasida jabrlanuvchi tengdoshlaridan ajralib qolishiga va psixologik muammolarga duch kelishiga sabab bo‘ladi. Kiberbezarilikni oldini olish bo‘yicha Qozog‘iston olimlari tomonidan quyidagi takliflar ilgari surilgan.<sup>1</sup>

✓ **ta’lim va ma’lumot qo‘llovi;** mazkur tamoyil kiberbezarilikni oldini olishning asosiy vositasi sifatida nazarda tutiladi. Maktab va ta’lim tashkilotlari kiberbezarilik haqida, uning salbiy oqibatlari va himoyalanish tartibi haqida o‘quvchilarga muntazam ravishda ma’lumot berishi lozimdir.

✓ **internetda xavfsiz sferaning ishlab chiqilishi;** davlat hokimiyati organlari mazkur tamoyilda harakat olib borishlari talab etiladi. Buning natijasida, raqamli tarmoqda munosib xulqatvor asosida foydalanish tartibi paydo bo‘ladi. Qolaversa, salbiy mavzudagi kontentlarni aniqlashda va foydalanishni cheklashga yordam beradi. Shuningdek, mazkur tamoyil orqali internet foydalanuvchilarni kiberbezarilikdan himoyalanishiga xizmat qiladi.<sup>17</sup>

✓ **ota-onalarning ishtiroki;** kiberbezarilikdan saqlanishda ota-onalarning ishtiroki muhim hisoblanadi. Ular bolalarini internetdan foydalanish bo‘yicha nazorat qilishlari talab etiladi.

Qolaversa, kiberbezarilik natijasida jabr ko‘rgan bolalarga ota-onalarning yordami, qo‘llab-quvvatlovi va yordami zarur bo‘ladi hamda doimiy ravishda ular bolalariga kiberbezarilikning salbiy jihatlari to‘g‘risida faktik ma’lumotlar berib borishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

✓ **kiberbezarilikdan jabrlanganlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;** mazkur harakat natijasida ziyon ko‘rgan shaxslar doim yordamga muhtoj bo‘ladi. Keljakda ta’lim tashkilotlarida kiberbezarilikdan himoyalanish bo‘yicha preventiv choralar rejasi mavjud bo‘lishi va bu haqda o‘quvchilarga axborot berib borilishi zaruriy harakat hisoblanadi.

✓ **kiberbezarilikka nisbatan javobgarlik masalalari tartibga solinishi;** kiberbezarilik jinoiy xatti-harakat hisoblanib, uni sodir etgan shaxs javobgarlikka tortilishi lozimdir.

<sup>1</sup> DOI: <https://doi.org/10.32523/2616-6844-2023-145-4-91-99> N.B. Kalkayeva<sup>1</sup>, A.B. Izbassova<sup>2</sup>, D.B. Bugybay<sup>3</sup>  
Some issues of cyberbullying prevention in the Republic of Kazakhstan IRSTI 10.81.01

Shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan kiberbezarilikni jinoyat turi hamda ayblanuvchini to‘g‘ridan to‘g‘ri javobgarlik subyekti sifatida aniqlanishi kerakligi nazarda tutilgan.

### **Xulosa.**

Yuqoridagilarga asoslanib umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, kiberbezarilik jinoyati dunyo hamjamiyatida keng tarqalayotgan ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanib, uning oqibatida ko‘plab insonlar xususan voyaga yetmagan yoshlar jabr ko‘rayotgani ayanchli holat sifatida baholanmoqda. Mazkur xavfli qilmishni barvaqt oldini olish, unga qarshi javobgarlik mexanizmi va huquqiy konsultatsiya chora tadbirlarini amalgalash zarur bo‘lmoqda.

Shuningdek,<sup>8</sup> o‘sib borayotgan kelajak avlodni ushbu xavfli xatti-harakatdan saqlash, bu bo‘yicha tasdiqlangan manbalarga tayanib faktik ma’lumotlar fuqarolarga muntazam ravishda taqdim etilishi va tegishli ko‘nikmalar ommaviy axborot vositalarida berib borilishi lozim hisoblanmoqda. Yuqorida voyaga yetmaganlar o‘rtasida kiberbezarilikni yuzaga keltiruvchi omillar va oldini olish choralarini muhokama qilib o‘tdik.

## **REFERENCES**

### **Rasmiy elektron manbalar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti [www.president.uz](http://www.president.uz)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi [info@stat.uz](mailto:info@stat.uz)

### **Ilmiy maqolalar:**

3. NISHANOVA Nigora Batirovna, X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi Sud-lingvistik va psixologik ekspertizasi bo‘limi boshlig‘i “INTERNET TARMOG‘I MAYDONINING YOSHLAR ONGIGA TA’SIRI VA BUNING OQIBATLARI” O‘zbekiston sud ekspertizasi” huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2021-yil 4-iyunda 1185-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan. e-mail: [info@sudex.uz](mailto:info@sudex.uz)

### **Xorijiy ilmiy maqolalar :**

4. <https://doi.org/10.3389/fpubh.2021.634909> Chengyan Zhu<sup>1</sup> Shiqing Huang<sup>2</sup> Richard Evans<sup>3</sup> Wei Zhang<sup>4</sup> Cyberbullying Among Adolescents and Children: A Comprehensive Review of the Global Situation, Risk Factors, and Preventive Measures SYSTEMATIC

<sup>8</sup> DOI: <https://doi.org/10.32523/2616-6844-2023-145-4-91-99> N.B. Kalkayeva<sup>1</sup>, A.B. Izbassova<sup>2</sup>, D.B. Bugybay<sup>3</sup>  
**Some issues of cyberbullying prevention in the Republic of Kazakhstan** IRSTI 10.81.01

REVIEW article Front. Public Health, 11 March 2021 Sec. Public Mental Health Volume 9 - 2021 |

5. DOI:<https://doi.org/10.32523/2616-6844-2023-145-4-91-99> N.B. Kalkayeval , A.B. Izbassova2 , D.B. Bugybay 3 Some issues of cyberbullying prevention in the Republic of Kazakhstan IRSTI

**Internet manzillari:**

6. [www.president.uz](http://www.president.uz)
7. [https://www.stat.uz/uz/](http://www.stat.uz/uz/)
8. <https://doi.org>